

---

## MUQADDAS QADAMJOLAR VA ZIYORATGOHLARNI OBODONLASHTIRISH ISHLARIGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILMOQDA

Inson ma'naviyati o'z xotiralari manbaida rivoj topadi. Xotira va qadrlash inson aql zakovatining ulug' ne'mati, ta'bir joiz bo'lsa, hech qachon unutilmaydigan abadiy va ardoqli odamiylik mezonlaridandir. Mazkur tushunchalar qa'rida insonga, uning xotirasiga, qadr-qimmatiga ehtirom tuyg'usi mujassamdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mitaning Toshloq tuman bo'limi rahbari T.Abdullayev, O'zbekiston XDP tuman tashkiloti raisi, tuman kengashi deputati T.Soliyev hamda Arabmazor MFY raisi R. Nurmatovlar "Saidburxon Eshonbuva" qabristoni hamda Davlat muhofazasiga olingan, eramizdan avvalgi I-asrga mansub moddiy-madaniy meros ob'yekti bo'lgan "Arabmazor" tarixiy tepaligini, "Saidburxon Eshon" jome masjidlarini ziyorat qilib, ularning saqlanishi, tozaligiga va obodonlashtirilishiga e'tibor qaratdilar.

Mavjud ziyoratgohlarni yanada asrab-avaylash, saqlash va ozodaligini ta'minlash borasida mutassadilarga tegishli tavsiyalar berilib, mazkur vazifalarni bajarish yuzasidan deputatlik nazorati o'rnatildi.

2022-10-10 15:10:17